V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ARALOVA KAMOLA AKBAR QIZI

NOVOLTERRA KVADRATIK STOXASTIK OPERATORLARNING SUPERPOZITSIYASI DINAMIKASI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2024 yil

UDK: 517.98

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Aralova Kamola Akbar qizi
Novolterra kvadratik stoxastik operatorlarning superpozitsiyasi dinamikasi 3

Aralova Kamola Akbar qizi
Dynamics of superposition of non-Volterra quadratic stochastic operators 19

Аралова Камола Акбар кизи
Динамика суперпозиции невольтерровских квадратичных стохастических операторов 35

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ. 38

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ARALOVA KAMOLA AKBAR QIZI

NOVOLTERRA KVADRATIK STOXASTIK OPERATORLARNING SUPERPOZITSIYASI DINAMIKASI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2024 yil

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM932 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jamilov Uyg‘un Umurovich** fizika-matematika fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**G‘anixo‘jayev Nosir Nabiyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xamrayev Axror Yusupovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 7-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (193 - raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 20-dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 20-dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar rais o‘rinbosari,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda nochiziqli dinamik sistemalarni tadqiq qilish masalalariga keltiriladi. Dinamik sistemalar nazariyasining ahamiyati sistemaning dastlabki ma’lum holatini bilgan holda kelajakda qanday holatlar kelib chiqishini baholashdan iborat bo‘lib, u fizika, biologiya, tibbiyot, iqtisodiyot sohalaridagi murakkab jarayonlarni tushunish va optimal qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, diskret vaqtli nochiziqli dinamik sistemalarni, xususan, matematik biologiyada keng qo‘llanuvchi kvadratik stoxastik operatorlar va ularning superpozitsiyalari dinamikasini tadqiq etish dinamik sistemalar nazariyasidagi muhim va dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyo bo‘ylab ko‘plab amaliy masalalarning xarakterini tushunishda, tahlil qilishda hamda optimal yechimini topishda asosiy vosita sifatida qo‘llaniladigan nochiziqli dinamik sistemalarga doir muntazam ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, berilgan dinamik sistema uchun mazkur sistemaning invariant to‘plamlarini aniqlash, barcha davriy nuqtalarni topish va ularning tipini aniqlash hamda eng muhim bo‘lgan, berilgan ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta orbitasining limit nuqtalar to‘plamini tavsiflash kabi masalalarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan tibbiyot, biologiya, matematika va fizika fanlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, biologiya, tibbiyot, mexanika, elektronika, iqtisodiyot va optimal boshqaruv nazariyalarida keng tatbiqiga ega bo‘lgan nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasini rivojlantirishga alohida e’tibor berildi va bu borada salmoqli natijalarga erishildi. “Algebra, funksional analiz va dinamik tizimlar nazariyasi” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Bu qaror ijrosini ta’minlashda ilmiy natijalarni fanning turdosh sohalarida qo‘llash maqsadida diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim

[1] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to’g‘risida”gi 292-sonli qarori.

sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda biologik yoki fizik sistemalardagi tabiiy jarayonlarni tushunishda nochiziqli dinamik sistemalarni matematik modellar sifatida qo‘llash va ularni tadqiq etishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Nochiziqli dinamik sistemalarning eng sodda holi bo‘lgan, kvadratik stoxastik operatorlar yordamida hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalar populyatsiya dinamikasi, fizika, iqtisodiyot kabi turli sohalardagi tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Kvadratik stoxastik operatorlar dastlab 1924-yilda S. Bernshteyn ishlarida matematik genetikadagi biror bir irsiy qonuniyatga asoslangan gen chastotalari dinamikasini aniqlovchi “evolyutsion operatorlar” sifatida kiritilgan bo‘lib S. Ulam, Yu.I. Lyubich, G. Kesten, S.S. Vallander, R. Jenks, E. Akin, V. Losert va o‘zbek matematiklari T.A. Sarimsoqov, R.N. G‘anixo‘jayev, N.N. G‘anixo‘jayev, O‘.A. Roziqov, F.M. Muxamedov, U.U. Jamilov, O.N. Hakimovlarning ishlarida bu kabi operatorlarning dinamikasini o‘rganish masalasi rivojlantirilgan.

Umumiy holda, kvadratik stoxastik operatorning asimptotik xossalarini o‘rganish murakkab masala bo‘lib, hattoki ikki o‘lchamli simpleksda ham ochiq turibdi. Bu asosiy masala Volterra kvadratik stoxastik operatorlari uchun R.N. G‘anixo‘jayev tomonidan nisbatan to‘liqroq hal etilgan. Hozirgi kunda N.N. G‘anixo‘jayev, O‘.A. Roziqov, F.M. Muxamedov, A. Zada, U.U. Jamilov, D.B.Eshmamatova kabi matematiklar tomonidan novolterra kvadratik operatorlar dinamikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Novolterra kvadratik operatorlarning superpozitsiyasi dinamikasini o‘rganish polinomial stoxastik operatorlar nazariyasi nuqtai nazaridan ham qiziqarli bo‘lib, bu nazariya M. Scheutzow va M. Wilke Berenguer ishlarida rivojlantirilgan. Ma’lumki, eng sodda polynomial stoxastik operatorlar bu kvadratik va kubik stoxastik operatorlardir. Xususan, kubik stoxastik operatorlar dinamikasi M. Ladra, U.A. Roziqov, F.M. Muxamedov, A.Yu. Hamrayev, U.U. Jamilovlarning ishlarida tadqiq qilingan.

D.B. Eshmamatova, Sh.J. Seytov va N.B. Narziyevlarning ishlarida ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan turlicha xarakteristikaga ega bo‘lgan Volterra operatorlarning superpozitsiyasi bilan hosil qilingan dinamik sistemalar o‘rganilgan va superpozitsiya operator uchun ixtiyoriy orbitaning asimptotik xossalari dastlabki berilgan operatorlar orbitalari xossalaridan mutlaq farq qilishi ko‘rsatilgan. Xususan, turli harakat yo‘nalishiga ega bo‘lgan noergodik operatorlar superpozitsiyasidan hosil qilingan operator regular ekanligi isbotlangan.

Ta’kidlab o‘tish joizki, ko‘p sonli ilmiy izlanishlarga qaramasdan, ixtiyoriy kvadratik stoxastik operatorlar va ularning superpozitsiyasi orqali hosil qilingan operatorlar uchun orbitaning limit nuqtalari to‘plamini to‘la tavsifi olinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tekshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining OT-F4-87 raqamli “Evklid va psevdo-Evklid fazolaridagi egri chiziqlar va sirtlarning global invariantlari nazariyasi va uning mexanikaga tatbiqlari” (2017-2020 yy), OT-F4-82 raqamli “Operatorlar va noassotsiativ algebralarda lokal differensiallash va avtomorfizmlar, nochiziqli dinamik sistemalarda faza almashishlar va xaos” (2017-2020 yy) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari va “Noassotsiativ algebralar strukturaviy nazariyasi va uning biologik sistemalardagi dinamik sistemalarni tadqiq qilishdagi tatbiqi” (2020-2023 yy) nomli ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi novolterra kvadratik stoxastik operatorlari superpozitsiyasi orqali hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalar ixtiyoriy orbitasining limit nuqtalari to‘plamini to‘la tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

superpozitsiya operatoriga nisbatan invariant to‘plamlarni aniqlash;

superpozitsiya operatorining davriy nuqtalar to‘plamini tavsiflash va ularning turlarini aniqlash;

superpozitsiya operatori uchun Lyapunov funksiyalarini qurish;

superpozitsiya operatori uchun orbitalarning limit nuqtalari to‘plamini tavsiflash.

Tadqiqot ob’ekti: novolterra operatorlarning superpozitsiyasi, Volterra va o‘rin almashtirilgan Volterra operatorlari superpozitsiyasi.

Tadqiqot predmeti. Matematik analiz, funksional analiz, nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida matematik analiz, funksional analiz, algebra va dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki va uch o‘lchamli simpleksda aniqlangan turli novolterra operatorlar superpozitsiyasi orqali hosil qilingan operatorlarning davriy nuqtalari va bu operatorlarga nisbatan invariant to‘plamlar topilgan bo‘lib, operatorlar uchun ixtiyoriy orbitaning qo‘zg‘almas nuqtaga yoki davriy orbitaga yaqinlashishi isbotlangan;

regular va ergodik novolterra kvadratik stoxastik operatorlar superpozitsiyasi uchun deyarli barcha orbitalar qo‘zg‘almas nuqtaga yaqinlashishi isbotlangan;

ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan har qanday ekstremal Volterra va uning o‘rin almashtirishlari orqali hosil qilingan operator bilan superpozitsiyasi uchun barcha qo‘zg‘almas, davriy nuqtalari topilgan hamda ixtiyoriy orbitaning limit nuqtalari to‘plami tavsiflangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya yangi qiziqarli natijalarni o‘z ichiga oladi va ular diskret vaqtli nochiziqli dinamik tizimlar nazariyasida qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar va olingan natijalar oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun maxsus kurs uchun material sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik va funksional analiz, Lyapunov funksiyalari nazariyasi va dinamik sistemalar nazariyasi usullari, shuningdek, qat’iy matematik mulohazalar orqali isbotlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ularning stoxastik operatorlar nazariyasida, matematik biologiya muammolarini hal qilishda qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati matematik biologiyaning turli modellarida qo‘zg‘almas nuqtalar va limit nuqtalar to‘plamining tavsifi populyatsiyaning kelajakdagi evolyutsiyasi haqida ma’lumotlarni berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Novolterra kvadratik stoxastik operatorlarning superpozitsiya dinamikasi bo‘yicha olingan natijalar quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy qilingan:

novolterra kvadratik stoxastik operatorlarning superpozitsiyasi orqali hosil hosil qilingan operatorning invariant to‘plamlari va davriy nuqtalari to‘plamidan G00003447 raqamli “Kvant genetik algebralar va ularning tatbiqlari” mavzusidagi xorijiy loyihada nochiziqli stoxastik operatorlarning dinamikasini tahlil qilishda foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2024 yil 19-sentabrdagi ma’lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi biologik sistema holati o‘zgarishini ta’minlaydigan nochiziqli stoxastik operatorlarning davriy orbitalarini tavsiflash imkonini bergan;

Volterra va o‘rin almashtirilgan Volterra kvadratik stoxastik operatorlarining superpozitsiyasi orqali hosil qilingan operator uchun orbitalarning limit nuqtalari tavsifidan PID2020-115155GB-I00 raqamli “Assotsiativ bo‘lmagan gruppalar va algebralarda gomologiyalar, gomotopiyalar va kategorik invariantlar” mavzusidagi xorijiy loyihada evolyutsion operatorlarning musbat orbitalarini tahlil qilishda foydalanilgan (Santyago de Kompostela universitetining 2024 yil 23-sentyabrdagi ma’lumotnomasi, Ispaniya). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi evolyutsion algebra, matematik biologiya va populyatsion genetika sohalarida foydalaniladigan nochiziqli operatorlar uchun orbitalarning limit nuqtalari to‘plamini yuqoridan baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 6 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 97 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asosli ravishda tahlil qilingan bo‘lib tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliy joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ham batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikkita ergodik novolterra kvadratik operatorlarning superpozitsiyasi”** deb nomlanuvchi birinchi bobida, kvadrat stoxastik operatorlar nazariyasi va dinamik sistemalar nazariyasidan zaruriy ta’riflar va tushunchalar keltirilgan. Shuningdek, ikki va uch o‘lchamli simplekslarda bir oilaga mansub ergodik novolterra kvadrat stoxastik operatorlarning superpozitsiyalari orqali hosil qilingan operatorlarning dinamikasi o‘rganilgan.

Aytaylik $E=\{1,\ldots,m\}$ bo‘lsin. U holda E to‘plamdagi barcha ehtimollik taqsimotlari $(m-1)$- o‘lchamli simpleksni aniqlaydi va

$$S^{m-1}=\left\{\mathbf{x}=(x_1,x_2,\ldots,x_m)\in\mathbb{R}_+^m:\ \sum_{i\in E}x_i=1\right\}$$

kabi ifodalanadi.

Agar $V:\mathbb{R}_+^m\to\mathbb{R}_+^m$ operator uchun $V(S^{m-1})\subset S^{m-1}$ bo‘lsa, V operatorga stoxastik operator(SO) deyiladi.

Kvadratik stoxastik operator(KSO) deb S^{m-1} simpleksni o‘zini-o‘ziga akslantiruvchi quyidagi akslantirishga aytiladi:

$$V: x'_k=\sum_{i,j=1}^{m}p_{ij,k}x_ix_j,\quad k\in E, \tag{1}$$

bu yerda $p_{ij,k}$ koeffisientlar

$$p_{ij,k}=p_{ji,k}\geq 0,\quad \sum_{k=1}^{m}p_{ij,k}=1,\quad i,j,k\in E \tag{2}$$

shartlarni qanoatlantiradi.

Ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}$ boshlang‘ich nuqtaning orbitasi $\{\mathbf{x}^{(n)}\}_{n=0}^{\infty}$ ketma-ketlik

$$\mathbf{x}^{(n+1)}=V(\mathbf{x}^{(n)})=V^{n+1}(\mathbf{x}^{(0)}),\ n=0,1,2,\ldots$$

kabi aniqlanadi.

$\{\mathbf{x}^{(n)}\}_{n=0}^{\infty}$ orbitaning limit nuqtalari to‘plamini $\omega_V(\mathbf{x}^{(0)})$ bilan belgilaymiz.

Dinamik sistemalarning asosiy masalasi ixtiyotiy $\mathbf{x}^{(0)} \in S^{m-1}$ boshlang‘ich nuqta va berilgan V operator uchun $\omega_V(\mathbf{x}^{(0)})$ to‘plamni tavsiflashdan iboratdir.

Agar har bir $\mathbf{x} \in S^{m-1}$ uchun $\lim\limits_{n\to\infty} V^n(\mathbf{x})$ limit mavjud bo‘lsa, V stoxastik operator *regulyar* deyiladi.

Agar har bir $\mathbf{x} \in S^{m-1}$ uchun

$$\lim_{n\to\infty}\frac{1}{n}\sum_{k=0}^{n-1} V^k(\mathbf{x})$$

limit mavjud bo‘lsa, V stoxastik operator *ergodik* deyiladi.

1-ta’rif. *V_1, V_2 SOlar berilgan bo‘lsin. $V_2 = H^{-1}V_1H$ tenglikni qanoatlantiruvchi H gomeomorfizm mavjud bo‘lsa, biz V_1 operator V_2 operatorga topologik qo‘shma deymiz va $V_1 \sim V_2$ kabi belgilaymiz.*

Dissertatsiya ishida quyidagi belgilashlardan foydalanilgan.

$\partial S^{m-1} = \{\mathbf{x} \in S^{m-1} :$ kamida bitta $i \in E$ uchun $x_i = 0\}$ - simpleksning chegarasi;

$\Gamma_\alpha = \{\mathbf{x} \in S^{m-1} : x_i = 0,\ \forall i \notin \alpha\},\ \alpha \subset E$ - simpleksning yoqi;

$\mathrm{int}S^{m-1} = \{\mathbf{x} \in S^{m-1} : x_1x_2\cdots x_m > 0\}$ - simpleksning ichi;

$\mathbf{e}_i = (\delta_{1i}, \delta_{2i}, \ldots, \delta_{mi}) \in S^{m-1},\ i = 1,\ldots,m$ - simpleksning uchlari, bu yerda δ_{ij} - Kroneker deltasi;

O‘rin almashtirishlarga mos keluvchi S^{m-1} simpleksda aniqlangan KSOlar oilasi quyidagi ko‘rinishda berilgan bo‘lsin:

$$V_\pi : \begin{cases} x'_k = 2x_m x_{\pi(k)}, & k = 1,\ldots,m-1 \\ x'_m = 2x_m^2 - 2x_m + 1, & \end{cases} \tag{3}$$

bu yerda π - $\{1,\ldots,m-1\}$ to‘plamning biror o‘rin almashtirishi.

Dastlab S^2 simpleksdagi V_π KSO larning superpozitsiyasini qaraymiz. Ma’lumki, $\{1,2\}$ to‘plamning $\pi_1 = Id,\ \pi_2 = (21)$ o‘rin almashtirishlari mavjud.

$V_i = V_{\pi_1} \circ V_{\pi_i},\ i = 1,2$ deb belgilaymiz. U holda

$$V_1 = V_{\pi_1} \circ V_{\pi_1} = V_{\pi_2} \circ V_{\pi_2}, \qquad V_2 = V_{\pi_1} \circ V_{\pi_2} = V_{\pi_2} \circ V_{\pi_1}.$$

1-teorema. *V_1 va V_2 operatorlar uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,2\}}$ *uchun* $V_i(\mathbf{x}^{(0)}) = \mathbf{e}_3,\ i = 1,2$;
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus (\Gamma_{\{1,2\}} \cup \{\mathbf{e}_3\})$ *uchun* $\omega_{V_1}(\mathbf{x}^{(0)}) = \{\hat{\mathbf{x}}\}$;
- $\omega_{V_2}(\mathbf{x}^{(0)}) = \begin{cases} \{\hat{\mathbf{x}}\}, & agar\ \ \mathbf{x}^{(0)} \in M_1 \setminus (\Gamma_{\{1,2\}} \cup \{\mathbf{e}_3\}), \\ \{\hat{\mathbf{x}}, V_2(\hat{\mathbf{x}})\}, & agar\ \ \mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus (\Gamma_{\{1,2\}} \cup M_1\}), \end{cases}$

bu yerda $\hat{\mathbf{x}} = \dfrac{1}{2}\left(\dfrac{x_1^{(0)}}{x_1^{(0)} + x_2^{(0)}}, \dfrac{x_2^{(0)}}{x_1^{(0)} + x_2^{(0)}}, 1\right)$ va $M_1 = \{\mathbf{x} \in S^2 : x_1 = x_2\}$.

Endi S^3 simpleksda (3) tenglik bilan aniqlangan KSOlarning superpozitsiyasi yordamida hosil qilingan $V_{\pi_i} \circ V_{\pi_j} : S^3 \to S^3$ operatorlarni qaraymiz.

Ma'lumki $\{1,2,3\}$ to'plamning barcha o'rin almashtirishlari quyidagicha:

$$\pi_1 = Id,\ \pi_2 = (12),\ \pi_3 = (13), \pi_4 = (23),\ \pi_5 = (123),\ \pi_6 = (132).$$

U holda, bizda 36 ta superpozitsiya operatorlari hosil bo'ladi. Tekshirib ko'rish mumkinki, bu operatorlarning har biri $W_i = V_{\pi_1} \circ V_{\pi_i},\ 1 \le i \le 6$ operatorlardan biriga teng bo'ladi.

1-lemma. $W_3 \sim W_4 \sim W_2,\ W_6 \sim W_5.$

2-teorema. $W_i,\ i = 1,2,5$ *operatorlar uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,2,3\}}$ *uchun* $W_i(\mathbf{x}^{(0)}) = \mathbf{e}_4,\ i = 1,2,5$*;*
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus (\Gamma_{\{1,2,3\}} \cup \{\mathbf{e}_4\})$ *uchun* $\omega_{W_1}(\mathbf{x}^{(0)}) = \{\tilde{\mathbf{x}}\}$*;*
- $\omega_{W_2}(\mathbf{x}^{(0)}) = \begin{cases} \{\tilde{\mathbf{x}}\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)} \in M_2 \setminus (\Gamma_{\{1,2,3\}} \cup \{\mathbf{e}_4\}), \\ \{\tilde{\mathbf{x}}, W_2(\tilde{\mathbf{x}})\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus (M_2 \cup \Gamma_{\{1,2,3\}}), \end{cases}$
- $\omega_{W_5}(\mathbf{x}^{(0)}) = \begin{cases} \{\tilde{\mathbf{x}}\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)} \in M_5 \setminus (\Gamma_{\{1,2,3\}} \cup \{\mathbf{e}_4\}), \\ \{\tilde{\mathbf{x}}, W_5(\tilde{\mathbf{x}}), W_5^2(\tilde{\mathbf{x}})\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus (M_5 \cup \Gamma_{\{1,2,3\}}), \end{cases}$

bu yerda $\tilde{\mathbf{x}} = \frac{1}{2}\left(\frac{x_1^{(0)}}{x_1^{(0)} + x_2^{(0)} + x_3^{(0)}}, \frac{x_2^{(0)}}{x_1^{(0)} + x_2^{(0)} + x_3^{(0)}}, \frac{x_3^{(0)}}{x_1^{(0)} + x_2^{(0)} + x_3^{(0)}}, 1 \right),$

$$M_2 = \{\mathbf{x} \in S^3 : x_1 = x_2\}, \quad M_5 = \{\mathbf{x} \in S^3 : x_1 = x_2 = x_3\}.$$

Dissertatsiyaning **"Regulyar va ergodik novolterra kvadratik operatorlarning superpozitsiyasi"** nomli ikkinchi bobida, ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan regulyar va ergodik novolterra KSOlarning superpozitsiyasi orqali hosil qilingan dinamik sistemalar tadqiq qilingan. Bu operatorlar quyidagi ko'rinishlarga ega:

$$W_0 : \begin{cases} x_1' = (1+\alpha)^2 x_3^2 x_2^2 + 2(1+\alpha)\big(1-(1+\alpha)x_3(1-x_3)\big)x_3 x_1, \\ x_2' = (1+\alpha)^2 x_3^2 x_1^2 + 2(1+\alpha)\big(1-(1+\alpha)x_3(1-x_3)\big)x_3 x_2, \\ x_3' = \big(1-(1+\alpha)x_3(1-x_3)\big)^2 + 2(1+\alpha)^2 x_3^2 x_1 x_2, \end{cases}$$

$$W_1 : \begin{cases} x_1' = (1+\alpha)(x_3^2 + 2x_1x_2)(x_2^2 + 2x_1x_3), \\ x_2' = (1+\alpha)(x_3^2 + 2x_1x_2)(x_1^2 + 2x_2x_3), \\ x_3' = 1-(1+\alpha)(x_3^2 + 2x_1x_2)(1-(x_3^2 + 2x_1x_2)), \end{cases}$$

bu yerda $\alpha \in [-1,1]$.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$t_\alpha = \sqrt[3]{(\alpha+1)\Big((2-\alpha)^2 + \sqrt{6\alpha^2 - 32\alpha + 43}\Big)},$$

$$x_\alpha^* = \frac{1}{3}\left(\frac{t_\alpha}{1+\alpha} + \frac{\alpha-3}{t_\alpha} + 1\right),\ \mathbf{x}_\alpha^* = \left(\frac{1-x_\alpha^*}{2}, \frac{1-x_\alpha^*}{2}, x_\alpha^*\right),$$

$$l_\alpha = \sqrt[3]{118 - 44\alpha + 18\sqrt{6\alpha^2 - 32\alpha + 43}},$$

$$x_\alpha^{**} = \frac{l_\alpha}{9\sqrt[3]{(\alpha+1)}} - \frac{2\sqrt[3]{(\alpha+1)}}{9l_\alpha} + \frac{1}{9},\ \mathbf{x}_\alpha^{**} = \left(\frac{1-x_\alpha^{**}}{2}, \frac{1-x_\alpha^{**}}{2}, x_\alpha^{**}\right).$$

3-teorema. W_0 *operator uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,2\}} \cup \{\mathbf{e}_3\}$ *uchun* $W_0(\mathbf{x}^{(0)}) = \mathbf{e}_3$ *;*
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus (\Gamma_{\{1,2\}} \cup \{\mathbf{e}_3\})$ *uchun*

$$\omega_{W_0}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{e}_3\}, & agar\ \alpha \le -1/2, \\ \{\mathbf{x}_\alpha^*\}, & agar\ \alpha > -1/2. \end{cases}$$

4-teorema. W_1 *operator uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

- ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}$ *uchun* $W_1(\mathbf{x}^{(0)}) = \mathbf{e}_3$ *;*
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}$ *uchun*

$$\omega_{W_1}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{e}_3\}, & agar\ \alpha \le -1/2, \\ \{\mathbf{x}_\alpha^{**}\}, & agar\ \alpha > -1/2. \end{cases}$$

Agar operator regulyarlik xususiyatiga ega bo'lsa, unda u ergodik gipotezani qanoatlantiradi va 3- va 4- teoremalardan W_0 va W_1 SOlar ergodikdir, bundan biz quyidagi natijani olishimiz mumkin.

1-natija. W_0 *va* W_1 *stoxastik operatorlar ergodikdir.*

Dissertatsiyaning **"Kvadratik gomeomorfizmlarning superpozitsiyasi"** nomli uchinchi bobida, ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan ekstremal Volterra va o'rin almashtirilgan Volterra KSOlarining superpozitsiyasi orqali hosil qilingan dinamik sistemalar tadqiq qilingan.

S^{m-1} simpleksda aniqlangan V Volterra KSO berilgan bo'lsin. Ma'lumki, Volterra KSOlar uchun $p_{ii,i} = 1$ va barcha $i, k \in E,\ i \ne k$ larda $p_{ik,k} + p_{ik,i} = p_{ki,k} + p_{ki,i} = 1$tengliklar o'rinli hamda bunday operatorlar quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

$$V: x_k' = x_k\left(1 + \sum_{i=1}^m a_{ki} x_i\right)$$

bu yerda $A = \left(a_{ij}\right)_1^m$ elementlari $i \ne k$ uchun $a_{ki} = 2p_{ik,k} - 1$ bo'lib, $a_{ii} = 0$ va $|a_{ij}| \le 1$ bo'lgan koso-simmetrik matritsadir. Bu yerda $i, j \in E$.

2-ta'rif. *Agar* V *KSO ga mos keluvchi koso-simmetrik matritsa elementlari uchun barcha* $k \ne i$ *larda* $a_{ki} = -1$ *yoki* $a_{ki} = 1$ *tenglik bajarilsa, bunday operator ektremal Volterra operatorlari deyiladi.*

E to‘plamning π o‘rin almashtirishi berilgan bo‘lsin. $T_\pi : S^{m-1} \to S^{m-1}$ akslantirishni quyidagicha aniqlaymiz: $T_\pi(\mathbf{x}) = \left(x_{\pi(1)}, x_{\pi(2)}, \ldots, x_{\pi(m)}\right)$.

R.N. G‘anixo‘jayev va D.B.Eshmamatova ishlarida simpleksning ixtiyoriy kvadratik gomeomorfizmi T_π o‘rin almashtirish va V_0 Volterra operatori superpozitsiyasi ko‘rinishida, ya’ni $T_\pi \circ V_0$ kabi ifodalanishi isbotlangan.

S^2 dagi har qanday Volterra KSO quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$V_{(a,b,c)} : \begin{cases} x_1' = x_1\left(1 + ax_2 - bx_3\right), \\ x_2' = x_2\left(1 - ax_1 + cx_3\right), \\ x_3' = x_3\left(1 + bx_1 - cx_2\right), \end{cases}$$

bu yerda $a,b,c \in [-1,1]$.

$\{1,2,3\}$ to‘plamning o‘rin almashtirishi π bo‘lsin. Ma’lumki:

$$\pi_1 = Id,\ \pi_2 = (12),\ \pi_3 = (13),\ \pi_4 = (23),\ \pi_5 = (123),\ \pi_6 = (132).$$

$\tilde{V}_k = T_{\pi_k} \circ V$, $k = 1,\ldots,6$ operatorlarni aniqlaymiz. Biz KSOlar superpozitsiyasi orqali hosil qilingan $V \circ \tilde{V}_k$, $k = 1,\ldots,6$ SOlarning dinamikasini o‘rganamiz. $\tilde{V}_k \circ V \sim V \circ \tilde{V}_k$ ekanligini tekshirib ko’rish mumkin. Bu masala umumiy holda murakkab bo‘lganligi sababli biz dinamikani ekstremal Volterra KSOlar sinfi uchun tadqiq qilamiz.

1-ta’rifga ko‘ra S^2 da 8ta ekstremal Volterra KSOlar mavjud:

$$V_1 = V_{(-1,1,-1)};\ V_2 = V_{(-1,1,1)};\ V_3 = V_{(1,1,-1)};\ V_4 = V_{(1,-1,-1)};$$

$$V_5 = V_{(-1,-1,1)};\ V_6 = V_{(1,-1,1)};\ V_7 = V_{(1,1,1)};\ V_8 = V_{(-1,-1,-1)}.$$

2-ta’rifda keltirilgan ekvivalentlik munosabatidan ekstremal Volterra operatorlari $K_1 = \{V_1,\ldots,V_6\}$ va $K_2 = \{V_7, V_8\}$ ekvivalent sinflarga ajraladi. Volterra operatorlari nazariyasidan ma’lumki, K_1 sinfdan olingan har qanday Volterra KSO regulyar va K_2 sinfdan olingan har qanday Volterra KSO noergodikdir.

$V \in K_1$ bo‘lsin, aytaylik $V = V_1$. KSOlar superpozitsiyasi orqali hosil qilingan $W_k = V \circ \tilde{V}_k$, $k = 1,\ldots,6$ SOlar dinamikasini tadqiq qilamiz.

5-teorema. *W_1 SO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

- $\mathrm{F}ix(W_1) = \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}$;
- *agar* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,2\}} \setminus \{\mathbf{e}_1\}$ *bo‘lsa, u holda* $\lim\limits_{n\to\infty} W_1^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \mathbf{e}_2$;
- *agar* $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus \Gamma_{\{1,2\}}$ *bo‘lsa, u holda* $\lim\limits_{n\to\infty} W_1^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \mathbf{e}_3$.

$\mathbf{x}^* = \left(0, x^*, 1 - x^*\right)$ kabi belgilash kiritamiz, bu yerda x^* qiymat $x^4 - 2x^2 - x + 1 = 0$ tenglamaning $[0,1]$ dagi haqiqiy yechimi va $x^* \approx 0.525$.

6-teorema. *W_2 SO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

- $\mathrm{F}ix(W_2) = \{\mathbf{e}_1, \mathbf{x}^*\}$;

• *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{2,3\}}$ *uchun*

$$\omega_{W_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{x}^*\}, & agar \quad x_2^{(0)} = x^*, \\ \{\mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}, & boshqa\ hollarda. \end{cases}$$

• *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,3\}} \cup \Gamma_{\{1,2\}}$ *uchun* $\omega_{W_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \{\mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}$.

• *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \mathrm{int}S^2$ *uchun* $\omega_{W_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) \subset \Gamma_{23}$. *Bundan tashqari,* $\mathbf{x}^*$ *nuqtadan o'tuvchi shunday* ζ *invariant chiziq mavjud va* $\varepsilon = \sqrt{\frac{2}{3}}r$ *uchun shunday* $n_0 \in \mathbb{N}$ *mavjudki* $\forall n > n_0$ *uchun* $0 \le x_1^{(n)} < \varepsilon$ *o'rinli va*

$$\omega_{W_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{x}^*\}, & agar \ \ \mathbf{x}^{(n_0)} \in \zeta, \\ \{\mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}, & boshqa\ hollarda, \end{cases}$$

bu yerda r qiymat ζ chiziq va $\Gamma_{\{2,3\}}$ qirra orasidagi eng katta masofa.

7-teorema. W_3 *SO uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

• $\mathrm{F}ix(W_3) = \{\mathbf{e}_2, \mathbf{y}^*\}$*;*

• *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus \{\mathbf{e}_2, \mathbf{y}^*\}$ *uchun*

$$\omega_{W_3}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{e}_2\}, & agar \quad x_1^{(0)} < x^*, x_3^{(0)} < 1 - x^*, \\ \{\mathbf{x}^*, \mathbf{z}^*\}, & agar \ \ x_1^{(0)} = x^* \ \ yoki \ \ x_3^{(0)} = 1 - x^*, \\ \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_3\}, & boshqa\ \ hollarda, \end{cases}$$

bu yerda $\mathbf{y}^* = \left(x^*, 0, 1 - x^*\right)$ va $\mathbf{z}^* = \left(x^*, 1 - x^*, 0\right)$.

8-teorema. W_4 *SO uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

• $\mathrm{F}ix(W_4) = \{\mathbf{e}_3, \mathbf{z}^*\}$*;*

• *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus \{\mathbf{z}^*\}$ *uchun*

$$\omega_{W_4}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{e}_3\}, & agar \ \ x_3^{(0)} > 0, \\ \{\mathbf{z}^*\}, & agar \ \ x_1^{(0)} = x^*, x_3^{(0)} = 0, \\ \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2\}, & agar \ \ x_1^{(0)} \ne x^*, x_3^{(0)} = 0. \end{cases}$$

$\widehat{\mathbf{x}} = \left(\widehat{x}^2(2 - \widehat{x})^2, \frac{1 - \sqrt{1 - \widehat{x}}}{\widehat{x}^2\left(2 - \widehat{x}\right)^2 - \widehat{x} + 1}, \widehat{x}\right)$ belgilash kiritamiz, bu yerda $\widehat{x} \approx 0.389$ va bu quyidagi tenglamaning yechimi

$$x^2\left(2 - x\right)^2 + \frac{1 - \sqrt{1 - x}}{x^2\left(2 - x\right)^2 - x + 1} + x = 1, \ \ x \in [0,1].$$

Quyidagicha funksiyalarni qaraylik: $\alpha(x) = x^2(2 - x)^2$, $\beta(x) = x^2\left(2 - x^2\right)$, $\gamma(x) = x^4$, $\lambda(x) = \alpha(\beta(\gamma(x)))$, $x \in [0,1]$.

$$\hat{X}=\left\{\left(\hat{x},1-\hat{x},0\right),\left(0,\gamma\left(\hat{x}\right),1-\gamma\left(\hat{x}\right)\right),\left(1-\beta\left(\gamma\left(\hat{x}\right)\right),0,\beta\left(\gamma\left(\hat{x}\right)\right)\right)\right\}$$

to‘plamni belgilaymiz, bu yerda $\hat{x}\approx 0.932$ va bu $\lambda(x)=x$ ning $(0,1)$ dagi yechimi.

9-teorema. *W_5 SO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

- $\mathrm{F}ix(W_5)=\{\hat{\mathbf{x}}\}$*;*
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in\partial S^2$ *uchun*

$$\omega_{W_5}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\begin{cases}\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3\}, & agar\quad \mathbf{x}^{(0)}\notin\hat{X},\\ \hat{X} & agar\quad \mathbf{x}^{(0)}\in\hat{X};\end{cases}$$

$\breve{\mathbf{x}}=\left(\breve{x},1-\breve{x}-\breve{x}^2\left(2-\breve{x}^2\right),\breve{x}^2\left(2-\breve{x}^2\right)\right)$ nuqtani belgilab olamiz, bu yerda $\breve{x}\approx 0.314$ va bu $x=\left(\left(1-x^2\left(2-x^2\right)\right)^2-x^2\right)^2$ tenglamaning $(0,1)$ intervaldagi haqiqiy yechimi.

$$\bar{X}=\left\{\left(\bar{x},1-\bar{x},0\right),\left(1-\beta\left(\bar{x}\right),0,\beta\left(\bar{x}\right)\right),\left(0,\alpha\left(\beta\left(\bar{x}\right)\right),1-\alpha\left(\beta\left(\bar{x}\right)\right)\right)\right\},$$

to‘plamni belgilab olamiz, bu yerda $\bar{x}\approx 0.754$ va bu $\gamma(\alpha(\beta(x)))=x$ tenglamaning $(0,1)$ intervaldagi haqiqiy yechimi .

10-teorema. *W_6 SO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli :*

- $\mathrm{F}ix(W_6)=\{\breve{\mathbf{x}}\}$*;*
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in\partial S^2$ *uchun*

$$\omega_{W_6}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\begin{cases}\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3\}, & agar\quad \mathbf{x}^{(0)}\notin\bar{X},\\ \bar{X}, & agar\quad \mathbf{x}^{(0)}\in\bar{X}.\end{cases}$$

Kompyuter dasturi yordamidagi hisoblashlarga asoslanib quyidagi gipotezani keltirishimiz mumkin.

1-gipoteza. *Ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in\mathrm{int}S^2$ *uchun*

$$\omega_{W_5}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\omega_{W_6}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3\}.$$

$V\in K_2$ bo‘lsin, aytaylik $V=V_7$. Quyidagi KSOlarni aniqlaymiz $\tilde{V}_k=T_{\pi_k}\circ V$, $k=1,\ldots,6$. V va $\tilde{V}_k$, $k=1,\ldots,6$ KSOlarning superpozitsiyasi orqali hosil qilingan $\mathcal{W}_k=V\circ\tilde{V}_k$, $k=1,\ldots,6$ operatorlarning dinamikasini tadqiq qilamiz.

11-teorema. *$\mathcal{W}_1$ SO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

- $\Gamma_{12},\Gamma_{23},\Gamma_{13}$ *qirralar invariant to‘plamlardir;*
- $\mathrm{F}ix(\mathcal{W}_1)=\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3,\mathbf{c}\}$*, bu yerda* $\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3$ *egar va* $\mathbf{c}$ *itaruvchi;*
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^2\setminus\{\mathbf{c}\}$ *uchun* $\omega_{\mathcal{W}_1}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)\subset\partial S^2$*. Bundan tashqari, ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in\mathrm{int}S^2\setminus\{\mathbf{c}\}$ *uchun har qanday orbita va orbitalarning o‘rtachalaridan hosil qilingan* $\frac{1}{n}\sum_{k=0}^{n-1}\mathcal{W}_1^k\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ *ketma-ketlik uzoqlashuvchi.*

2-lemma. $\mathcal{W}_3 \sim \mathcal{W}_4 \sim \mathcal{W}_2$, $\mathcal{W}_6 \sim \mathcal{W}_5$.

1-tasdiq. $\mathcal{W}_2^2$ *operator uchun qo'zg'almas nuqtalarning tiplari quyidagicha:*

- $\mathbf{c}$ *itaruvchi;*
- $\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3$ *tortuvchi;*
- $\mathbf{x}^*, \mathbf{y}^*, \mathbf{t}^* = (1-x^*, x^*, 0)$ *egar.*

Dinamik sistemalar umumiy nazariyasiga ko'ra $\mathbf{e}_1 \in U_1$, $\mathbf{e}_2 \in U_2$, $\mathbf{e}_3 \in U_3$ bo'lgan U_1, U_2, U_3 ochiq to'plamlar mavjudki, ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in U_1 \cap \mathrm{int}S^2$ uchun $\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \{\mathbf{e}_1\}$ va $\mathbf{x}^{(0)} \in (U_2 \cup U_3) \cap \mathrm{int}S^2$ bo'lganda $\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \{\mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}$.

r bilan markazlari $\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3$ nuqtalarda bo'lgan va mos ravishda U_1, U_2, U_3 to'plamlarda yotuvchi aylanalar radiuslarining minimumini belgilab olamiz.

$\mathbf{x}^* \in \mathcal{V}_1$, $\mathbf{y}^* \in \mathcal{V}_2$, $\mathbf{t}^* \in \mathcal{V}_3$ bo'lgan $\mathcal{V}_1$, $\mathcal{V}_2$, $\mathcal{V}_3$ ochiq to'plamlar va bu ochiq to'plamlarda shunday $\zeta_1, \zeta_2, \zeta_3$ invariant chiziqlar mavjudki, ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in \zeta_1 \cap \mathrm{int}S^2$ (mos rav. $\mathbf{x}^{(0)} \in \zeta_2 \cap \mathrm{int}S^2$, $\mathbf{x}^{(0)} \in \zeta_3 \cap \mathrm{int}S^2$) uchun $\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \{\mathbf{x}^*\}$ (mos rav. $\omega_{\mathcal{W}_2^2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \{\mathbf{y}^*\}$, $\omega_{\mathcal{W}_2^2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \{\mathbf{z}^*\}$).

d_1 (mos rav. d_2, d_3) bilan ζ_1 (mos rav. ζ_2, ζ_3) chiziq va $\Gamma_{\{2,3\}}$ (mos rav. $\Gamma_{\{1,3\}}$, $\Gamma_{\{1,2\}}$). qirra orasidagi eng katta masofani belgilab olamiz.

12-teorema. $\mathcal{W}_2$ *SO uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{23}$ *uchun*

$$\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\} & agar \quad \mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{23} \setminus \{\mathbf{x}^*\}, \\ \{\mathbf{x}^*\}, & agar \quad \mathbf{x}^{(0)} = \mathbf{x}^*. \end{cases}$$

- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{13}$ *uchun*

$$\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\} & agar \quad 0 \le x_1^{(0)} < x^*, \\ \{\mathbf{y}^*, \mathbf{t}^*\}, & agar \quad x_1^{(0)} = x^*, \\ \{\mathbf{e}_1\}, & agar \quad x^* < x_1^{(0)} \le 1. \end{cases}$$

- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{12}$ *uchun*

$$\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \{\mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\} & agar \quad 0 \le x_1^{(0)} < 1 - x^*, \\ \{\mathbf{y}^*, \mathbf{t}^*\}, & agar \quad x_1^{(0)} = 1 - x^*, \\ \{\mathbf{e}_1\}, & agar \quad x^* < x_1^{(0)} \le 1, \end{cases}$$

- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)} \in \mathrm{int}S^2$ *uchun* $\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) \subset \partial S^2$. *Bundan tashqari,* $\varepsilon = \min\left\{\sqrt{2}d_1/\sqrt{3}, \sqrt{2}d_2/\sqrt{3}, \sqrt{2}d_3/\sqrt{3}, r/3\right\}$ *uchun shunday* $n_0 \in \mathbb{N}$ *topiladiki,* $\forall n > n_0$ *uchun* $\mathbf{x}^{(n)} \in \partial S_\varepsilon^2$ *va*

$$\omega_{\mathcal{W}_2}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\begin{cases}\{\mathbf{e}_1\}, & agar \quad \mathbf{x}^{(n_0)}\in A_1,\\ \{\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3\}, & agar \quad \mathbf{x}^{(n_0)}\in A_2\cup A_3,\\ \{\mathbf{x}^*\}, & agar \quad \mathbf{x}^{(n_0)}\in \zeta_1,\\ \{\mathbf{y}^*,\mathbf{t}^*\}, & agar \quad \mathbf{x}^{(n_0)}\in \zeta_2\cup\zeta_3,\end{cases}$$

bu yerda

$$\partial S_\varepsilon^2=\left\{\mathbf{x}:\ dist(\mathbf{x},\partial S^2)<\sqrt{\frac{3}{2}\varepsilon}\right\}.$$



1-chizma: $\partial S_\varepsilon^2 = A_1\cup A_2\cup A_3\cup\{\zeta_1\}\cup\{\zeta_2\}\cup\{\zeta_3\}$.

13-teorema. $\mathcal{W}_5$ *SO uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

- $\mathrm{F}ix(\mathcal{W}_5)=\{\mathbf{c}\}$;
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in\partial S^2$ *uchun* $\omega_{\mathcal{W}_5}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3\}$;
- *ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in\mathrm{int}S^2$ *uchun* $\omega_{\mathcal{W}_5}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ *to'plam* ∂S^2 *ning cheksiz qism to'plamidir.*

XULOSA

Dissertatsiya ishi novolterra KSOlar va kvadratik gomeomorfizmlar orqali hosil qilingan nochiziqli dinamik sistemalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan o‘rin almashtirishlarga mos keluvchi novolterra KSOlarning superpozitsiyasi orqali hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalarning orbitasi ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta uchun yoki qo‘zg‘almas nuqtaga yoki davri ikkiga teng bo‘lgan davriy orbitaga yaqinlashishi ko‘rsatilgan;
2. Uch o‘lchamli simpleksda aniqlangan o‘rin almashtirishlarga mos keluvchi novolterra KSOlarning superpozitsiyasi asimptotik xossalari to‘liq o‘rganilgan bo‘lib, ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta uchun orbita qo‘zg‘almas nuqtaga yoki davri ikkiga teng bo‘lgan yoki davri uchga teng bo‘lgan davriy orbitaga yaqinlashishi ko‘rsatilgan;
3. Regular va ergodik novolterra KSOlar superpozitsiyasi orqali hosil qilingan stoxastik operatorning deyarli barcha orbitalari qo‘zg‘almas nuqtaga yaqinlashishi isbotlangan;
4. Ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan regular ekstremal Volterra KSO orqali hosil qilingan kuartik gomeomorfizmlar uchun har qanday orbita yoki qo‘zg‘almas nuqtaga yoki davriy orbitaga yaqinlashishi ko‘rsatilgan;
5. Noergodik ekstremal Volterra KSO orqali hosil qilingan kvartik gomeomorfizmlar uchun har qanday orbita yoki qo‘zg‘almas nuqtaga yoki davriy orbitaga yaqinlashishi yoki uzoqlashuvchi bo‘lishi ko‘rsatilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

ARALOVA KAMOLA AKBAR QIZI

DYNAMICS OF SUPERPOSITION OF NON-VOLTERRA QUADRATIC STOCHASTIC OPERATORS

01.01.01-Mathematical analysis

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2024

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the of Ministers of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.4.PhD/FM932.

Thesis has been prepared at Institute of Mathematics.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Jamilov Uygun Umurovich** doctor of physical and mathematical sciences
Official opponents:	**Ganikhodjaev Nosir Nabiyevich** doctor of physical and mathematical sciences, professor
	Khamraev Akhror Yusupovich candidate of physical and mathematical sciences, docent
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place 7 January 2025 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered №193). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on 20 December 2024 year
(Mailing report № 2 on 20 December 2024 year)

U.A. Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., academician

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., senior researcher

A.A.Raximov
Deputy chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., professor

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. Many scientific and practical researches conducted on a global scale are mostly related to the investigation of nonlinear dynamical systems. The importance of the theory of dynamical systems is to assess what situations will arise in the future, knowing the initial known state of the system, and it is important for better understanding complex processes in the fields of physics, biology, medicine, and economics. Therefore, the study of discrete-time nonlinear dynamical systems, in particular, the dynamics of quadratic stochastic operators and their superpositions, which are widely used in mathematical biology, remains one of the important and pressing areas of research in the theory of dynamical systems.

Currently, scientific research on nonlinear dynamical systems is being conducted worldwide, as these systems are essential tools for understanding the nature of many practical problems, analyzing them and finding the optimal solution. Including, for a given dynamical system, special attention is paid to the study of issues such as determining the invariant sets of this system, finding all periodic points and determining their types, and most importantly, describing the set of limit points of the orbit for any initial point.

In recent years, in our country, attention has been paid to medicine, biology, mathematics and physics, which have scientific and practical application of fundamental sciences. In particular, special attention was paid to the development of the theory of nonlinear dynamic systems, which has wide application in biology, medicine, mechanics, electronics, economics and optimal control theories, and significant results were achieved in this regard. Conducting scientific research at the level of international standards in the priority areas of "Algebra, functional analysis and theory of dynamic systems" was defined as the main tasks and areas of activity of mathematics[1]. It is important to develop the theory of discrete-time dynamic systems in order to use scientific results in related fields of science to ensure the performance of these tasks.

The subject and object of research of this dissertation are in line with tasks identified in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan UP-4947 of February 7, 2017 “On the strategy of action for the further development Of the Republic of Uzbekistan”, UP-60 dated January 28, 2022 “Development Strategy of New Uzbekistan for the period of 2022-2026”, UP-2789 dated April 20, 2017 “On measures to further develop the system of higher education”, UP-2789 dated April 20, 2017 “On measures to further develop the system of higher education”, PP-4387 from July 9, 2019 “On measures to further development of mathematical education and science, and also root improvement of the activity of the Uzbekistan Academy of Sciences V.I.Romanovsky Institute of Mathematics”, and PP-4708 of May 7, 2020 “On measures to improve the quality of education and research in the field of mathematics” as well as in other regulations related to basic science.

[1] Decree of Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan at the 2017 year 18 May “On measures on the organization of activities of the first created scientific research institutions of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan” No. 292.

Connection of research to priority directions of development of science and technologies of the Republic. This study was performed in accordance with the priority areas of science and technology of Republic of Uzbekistan IV, “Mathematics, Mechanics and Computer Science”.

